



SIRDARYO VILOYATI SHIRIN SHAHAR HOKIMI Q A R O R I

2022 йил «29» март

85-9-131-Q/22

Ширин шаҳар ҳокимлиги

Ширин шаҳридаги қабристонларда дафн этиш хизматларини ко‘рсатиш бо‘йича тарифлар миқдорини тасдиqlash то‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasi, “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 101-son qaroriga asosan shahar hududidagi dafn etish joylarini saqlash hamda obodonlashtirish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Shirin shahardagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Shahar hokimi birinchi o‘rinbosari M. Kuvandikov, shahar Obodonlashtirish boshqarmasi (O. Yuldashev)larga:

- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda qabristonlarni zarur darajada saqlash va obodonlashtirish hamda hasharlar, xotirlash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

- sanitariya qoidalari va me‘yorlariga qat’iyan rioya etgan holda qabristonlarni ochish va yopishda qonuniylikni ta’minlasin, qabristonlar tashkil etish uchun yer uchastkasi ajratishni yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirsin.

3. Shahar Obodonlashtirish boshqarmasi (O.Yuldashev) hamda

qabristonlarning ma'muriyati:

- xizmatlar uchun qat'iy belgilangan tariflar bo'yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonda ko'rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o'z vaqtida va sifatli bajarilishini;

- qabristonlarda byustlar, haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo'lgan inshootlarni o'rnatish, obyektlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta'minlasin.

4. Qaror matni hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin hamda "Shirin sadosi" gazetasi bosh muharriri (O. Ashurqulov) ushbu qaror matnini "Shirin sadosi" gazetasida chop etilishini ta'minlasin.

5. Ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimi birinchi o'rinbosari M.Kuvandikov zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi



S.Sultonov

Shirin shahar hokimining
2022 yil 29 martdagi
85-9-131-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Shirin shahridagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha

TARIFLAR MIQDORI

T\r	Xizmat turi	O'lchov birligi	Bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan (foiz hisobida)
1.	Qabr uchun (diniy mansubligidan qat'iy nazar katta o'lchamda)	1 o'ringa	-
2.	Tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun uchastka olish	1 o'ringa	-
3.	Qabr uchun (diniy mansubligidan qat'iy nazar kichik o'lchamda)	1 o'ringa	-
4.	Qabr uchun (diniy mansubligidan qat'iy nazar 3 yoshgacha)	1 o'ringa	bepul
5.	Marosim xizmatlaridan foydalanish	1 kunga	bepul
6.	Qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan foydalanish	1 o'rin/kunga	bepul

Izoh: Shirin shahrida qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha ta'riflar miqdori bazaviy hisoblash miqdori ortishiga mutanosib ravishda dafn etish xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha ta'riflar miqdori ham ortadi.